

---

## ERKIN VOHIDOV POETIK TAFAKKURINING BUGUNGI TALQINI

**Surayyo Eshonqulova,**

*Alfraganus universiteti professori,*

*filologiya fanlari doktori (DSc)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi Erkin Vohidovning poetik tafakkuri “O‘lmas edi balki odamzod” she’ri misolida falsafiy-estetik va zamonaviy talqin nuqtayi nazaridan tadqiq etiladi. Asarda inson umrining foniyligi va ma’naviy abadiyligi, shaxs va jamiyat munosabati, insonning axloqiy mas’uliyati, vijdon, adolat, sabr, nafs, jaholat, adovat va ruhiy tanazzul kabi umuminsoniy masalalarning badiiy-falsafiy talqini tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Erkin Vohidov, poetik tafakkur, falsafiy lirika, “O‘lmas edi balki odamzod”, inson konsepsiyasi, ma’naviy abadiyat, hayot va o‘lim, inson va jamiyat.

O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyoti tarixida Erkin Vohidov ijodi alohida o‘rin tutadi. Shoir nafaqat badiiy mahorati, balki falsafiy mushohada, milliy tafakkur va umuminsoniy g‘oyalarni uyg‘unlashtira olgan ijodkor sifatida ham e’tirof etiladi [5]. Uning she’riyatida inson hayoti, ma’naviy mas’uliyat, vijdon, tarixiy xotira va abadiyat masalalari chuqur poetik tahlilga tortilgan.

Zamonaviy ijtimoiy-madaniy jarayonlar va axborot muhitining kengayishi sharoitida adabiyotning vazifasi faqat estetik zavq berish bilangina cheklanmaydi. U insonni o‘zligini anglashga, hayot mohiyatini tushunishga chorlaydi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Erkin Vohidov poetik tafakkuri zamonaviy o‘quvchi uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. “Shoirning falsafiy she’rlari bugungi adabiy tafakkur bilan uyg‘unlashib, yangi talqinlar uchun imkoniyat yaratadi” [3].

Mazkur maqolada Erkin Vohidovning “O‘lmas edi balki odamzod” she’ri misolida uning poetik tafakkurining bugungi talqini, ijodkor ruhiyati va zamonaviy adabiy ong bilan aloqador jihatlari tahlil qilinadi.

Erkin Vohidovning “*O‘lmas edi balki odamzod*” she’ri o‘z mohiyatiga ko‘ra falsafiy-kontseptual asar bo‘lib, unda inson umrining foniyligi va ma’naviy abadiyligi

masalasi markazga qo'yiladi. She'r nomining o'ziyoq o'quvchini teran mushohadaga chorlaydi. Shoir shartli ifoda orqali insonning o'lmas bo'lishi jismoniy emas, balki ma'naviy kamolot bilan bog'liqligini ilgari suradi.

Erkin Vohidovning "*O'lmas edi balki odamzod*" she'ri shoir ijodidagi eng yuksak falsafiy umumlashmalarga boy asarlardan biridir. She'r markazida inson umrining qisqaligi emas, balki uning nega qisqarayotgani haqidagi teran savol turadi. Shoir biologik o'lim sabablarini emas, ijtimoiy, axloqiy va ruhiy omillarni asosiy muammo sifatida ko'rsatadi:

*O'lmas edi balki odamzod,  
Bo'lar edi dunyoga ustun.  
Aqli bo'lsa jahldan ziyod,  
Sabri bo'lsa nafsidan ustun.*

*Ajal deya ataluvchi choh  
Ichra zinhor tushmasdi odam,  
Bo'lsa edi ozgina ogoh,  
O'ylabgina qo'ysaydi qadam.*

*Ish o'ldirmas, ishkal o'ldirar,  
Jon zavoli yuz yoshmas, ko'z yosh.  
Inson nega dunyodan ketar?  
Quvib unga otmasalar tosh?!*

*Tanqid zahri xanjari ila teng,  
Tuhmat ortiq o'qdan va dordan.  
Inson o'lmas biri birining  
O'lishiga bermasa yordam.*

*Inson o'lmas o'ldirmasa g'am,  
Makon qilmas qaro turbatni.  
Ko'rsa agar tirigida ham*

*O'lganda topgan hurmatni.*

*Olam to'la fitna, adovat,*

*Mangu qolib netar odamzod?*

*Bir kun charchab izlab farog'at,*

*Tinch dunyoga ketar odamzod [1].*

She'rda insoniyatning fojiaiviy taqdiri, urushlar, adolatsizlik va ma'naviy tanazzul sababli umrning qisqarib borayotgani ramziy obrazlar orqali ifodalanadi. Shoir fikricha, agar inson o'z mohiyatini anglab, vijdon va adolat yo'lidan borsa, odamzodning umr falsafasi butunlay boshqacha bo'lar edi, deb hisoblaydi.

She'rning dastlabki bandidayoq shoir insonni aql-jaholat, sabr-nafs qarama-qarshiligi orqali baholaydi. Bu yerda **aql va sabr** – insonni “o'lmaslik” darajasiga yetaklovchi fazilatlar sifatida talqin qilinadi. Demak, shoir nazarida o'lmaslik – jismoniy emas, ma'naviy hodisadir. Keyingi bandlarda **“ajal chohi”** obrazi ramziy ma'noga ega. Shoir taqdirni ko'r-ko'rona kuch emas, balki insonning beparvoligi va o'ylamay tashlangan qadami natijasi sifatida talqin qiladi. Bu g'oya zamonaviy adabiy tafakkurda insonning shaxsiy mas'uliyati masalasiga uyg'un keladi [4]. “Ish o'ldirmas, ishqal o'ldirar” misrasi she'rning g'oyaviy cho'qqilaridan biridir. Bu yerda shoir mehnatni emas, balki ruhiy **ezilish, tuhmat, adolatsizlikni** inson umrini yemiruvchi kuch sifatida ko'rsatadi. Ayniqsa, **“tuhmat ortiq o'qdan va dordan”** degan satrlar jamiyatdagi axloqiy inqirozni ochib beradi. Shoir insonning o'limiga ko'pincha boshqa inson sabab bo'layotganini keskin tanqid qiladi. **“Inson o'lmas biri birining o'lishiga bermasa yordam”** degan satr ijtimoiy mas'uliyatni eng yuqori nuqtada qo'yadi. Bu jihatdan she'r axloqiy-falsafiy manifest darajasiga ko'tariladi. Asarning yakunida shoir insonning bu dunyoni tark etishini fojiaiviy, ammo tabiiy hol sifatida emas, balki **fitna, adovat va ruhiy charchoq** natijasi sifatida talqin qiladi. **“Tinch dunyoga ketar odamzod”** misrasi bu dunyodagi notinchlikka qarshi ichki norozilik ifodasidir.

Shoir jamiyatdagi ijtimoiy illatlarni inson umrining **“dushmani”** sifatida ko'rsatadi. Zulm va adovat – bu faqat tashqi hodisa emas, balki inson qalbida paydo bo'ladigan ichki inqirozdir. Shu sababli Erkin Vohidov ijodida shaxs ruhiyati jamiyat taqdiri bilan uzviy bog'lanadi.

Zamonaviy talqinda ushbu she'ni ekologik, axloqiy va texnogen muammolar bilan bog'lab o'qish mumkin. Bugun insoniyat o'z qo'li bilan yaratayotgan tahdidlar – urushlar, ma'naviy bo'shliq, texnologiyaning insoniylikdan ustun qo'yilishi – shoir ilgari surgan fikrlarning naqadar bashoratli ekanini ko'rsatadi. Shu ma'noda Erkin Vohidov poetik tafakkuri bugungi davr bilan hamnafasdir.

She'ning falsafiy qatlamida vaqt tushunchasi muhim o'rin egallaydi. Shoir vaqtni shafqatsiz kuch sifatida emas, balki insonning o'ziga berilgan sinov sifatida talqin etadi. Agar inson bu sinovdan ma'naviy yetuklik bilan o'tsa, u ma'nan "o'lmaslik" darajasiga yetadi. Bu esa bugungi zamonaviy adabiy tafakkur uchun nihoyatda dolzarb g'oya hisoblanadi.

She'rda ishlatilgan obrazlar sodda, ammo mazmunan teran. Shoir murakkab falsafiy g'oyani xalqona ohang, ravon va tushunarli ifoda orqali yetkazadi. Bu jihat uning poetik tafakkurini zamonaviy o'quvchi uchun ham yaqinlashtiradi. Chunki bugungi adabiy ong murakkablikdan ko'ra ma'nodorlikni qadrlaydi.

Erkin Vohidov ijodkor ruhiyatini tahlil qilar ekanmiz, unda doimo mas'uliyat hissi ustuvor ekanini ko'ramiz. Shoir o'zini ham, o'quvchini ham befarqlikka qo'ymaydi. U insonni o'z vijdoni bilan yuzlashtiradi. Aynan shu jihat uning she'riyatini zamonaviy adabiy tafakkur bilan bog'lab turuvchi asosiy omildir.

Xulosa qilib aytganda, Erkin Vohidov poetik tafakkuri bugungi adabiy jarayonda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. "O'lmas edi balki odamzod" she'ri orqali shoir insoniyat taqdiriga daxldor bo'lgan umuminsoniy muammolarni falsafiy va badiiy jihatdan yuksak darajada ifodalagan. Ushbu asar nafaqat o'z davrining, balki bugungi zamonning ham ruhiy ehtiyojlariga javob beradi.

Shoir ijodida insonning ma'naviy kamoloti, vijdon va adolat tushunchalari markaziy o'rinni egallaydi. Zamonaviy talqinda bu g'oyalar yanada kengroq mazmun kasb etib, zamon ruhining tezkor axborot oqimi va insoniyat tafakkur bilan uyg'unlashuvi sharoitida insoniyatni ogohlantiruvchi badiiy-falsafiy xitob sifatida namoyon bo'ladi. Demak, Erkin Vohidov poetik tafakkuri – bu o'tgan asr merosi emas, balki bugungi va kelajak avlodlar uchun ham ma'naviy dasturdir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Vohidov E. Tanlangan asarlar. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2015.
2. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. –Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
3. Yo‘ldoshev Q. Badiiy tafakkur va zamon. –Toshkent: Fan, 2010.
4. Qo‘shjonov M. She‘riyat va falsafa. –Toshkent: Ma‘naviyat, 2008.
5. Umarov E. Adabiyot nazariyasi. –Toshkent: Akademnashr, 2019.
6. Botirova, S. I. (2024). AESTHETIC PERCEPTION AND GENRE HARMONY. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 5(05), 80-85.
7. ZAYNUTDINOVA, G. (2024). SHUHRAT ORIF SHE‘RIYATI FONOPOETIKASI. TAMADDUN NURI JURNALI Учредители: " Tafakkur-Tamaddun" LLC, 12(63), 295-298.
8. Khujaev, M. (2024). AHMED ZAKI: ON THE IDEAS OF THE PHILOSOPHY OF HISTORY. Экономика и социум, (1 (116)), 235-239.